

“XAYR BOG'CHAM -SALOM MAKTAB”

32- Davlat Maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachisi

ISROILOVA DILSORA MAQSUD QIZI

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lism tashkilotidagi fidoiy pedagogning mehnat mahsuli, yosh avlodni tarbiyalashdek sharafli, mas'uliyatli kasb egalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: MTM, etik, estetik, kasbiy faoliyat, ma'naviy-axloqiy rivojlanish.

Maktabgacha ta'lism va tarbiya- bolalarga ta'lism va tarbiya berishga, ularni intellektual , ma'naviy-axloqiy, etik,estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'lism turi hisoblanadi.

Maktabgacha Ta'lism Tashkiloti - bolalarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida yetakchi rol o'ynaydi. Bugungi kunda prezidentimiz tomonidan ham MTM sohasiga e'tibor juda kuchaygan. MTM larda zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalangan holda dars bera oladigan , ilg'or, salohiyatli har tomonlama bolaga o'rnak bo'la oladigan tarbiyachilar borligi , ularning safi kengayayotgani bizni yutug'imizdir.

Bizning Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida joylashgan 32- “Feruza” nomli maktabgacha ta'lism tashkilotimizda ham o'z kasbining ustasi, fidoiy, jonkuyar ustozlar talaygina. Ulardan biri kasbiy faoliyati davomida bir necha yillardan beri bolalarga ko'z nuri, qalb qo'ri bilan bilim, tarbiya berib kelayotgan ustoz Bo'stonova Dilshoda bugun o'zgacha , ajib hislar qurshovida. Bir yil davomida nafaqat ta'lism, balki tarbiya, mehr, bergen bolajonlari bugun maktab tomon uchirma bo'lmoqdalar.

Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:

Haq yo'lida kim senga,

Bir harf o'qitmish ranj ila.

Aylamak bo'lmas ado,

Oning haqin yuz ganj ila.

Oltinga teng, beqiyos misralar. Beg'ubor qalbga qalam tutqazib , bir harf o'rgatmoq oson emas. Buning zamirida ulkan mehnat , mashaqqat yotadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida harf tanib o'qishni, yozishni o'rganib, tom ma'noda ulg'ayib maktabga chiqmoqdalar.Bu ham bo'lsa jonkuyar ustozlarning yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga har xil xulq-atvorga ega bolalar kelishadi.Ularning har birining ko'ngliga yo'l topib, qalbidan joy egallab, bola tilida gaplashib kerak bo'lsa bola bo'lib ta'lim -tarbiya berish biz tarbiyachilarining burchimizdir. Tadbirda bolajonlar Maktab, Ona, Ustoz, Bog'cha, Vatanni madh etuvchi she'r va qo'shiqlar aytib , chiroyli raqslar bilan chiqishlar qilib , ota-onalar ustozlar olqishiga sazovor bo'ldilar. Tadbir yakunida ustoz D. Bo'stonova va tashkilot rahbari S. Umarova bolajonlarga oq yo'l tilab, maktabda a'lo baholarga o'qishlari va kelajakda yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlariga ishonch bildirdilar. Ņquvchilarga turli xil nominatsiyalarda diplomlar topshirildi. Ustozga ushbu mashaqqatli yo'lida, jazzi bolajonlarga ta'lim -tarbiya berishdan hech qachon charchamasliklarini, ishlariga omad, kuch-quvvat tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

"ILK QADAM" Davlat o'quv dasturi.